O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FARG‘ONA VILOYATI HOKIMINING
QARORI

2024-yil 21-avgust | 445-11-0-Q/24 | Farg‘ona viloyati hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-avgustdagi “Hududlarda sanoat salohiyatini yanada oishirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-295-sonli qarori ijrosini ta’minlash

Viloyatda sanoatni jadal rivojlantirish, korxonalarning mavjud muammolarini tezkorlik bilan hal etish, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining sanoat tarmoqlari bilan ishlash samaradorligini yanada oshirish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-oktyabrdagi “Sanoat va uning bazaviy tarmoqlarini jadal rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-169-sonli Farmoni hamda 2024-yil 15-avgustdagi “Hududlarda sanoat salohiyatini yanada oishirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-295-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida,

QAROR QILAMAN

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-avgustdagi “Hududlarda sanoat salohiyatini yanada oishirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-295-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qaror bilan:

Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar, hokimliklarining tuman va shaharlarda sanoat korxonalari bilan ishlash bo‘yicha “Respublika-viloyat-tuman” tamoyili asosida vertikal tizimni samarali yo‘lga qo‘yish to‘g‘risidagi takliflari ma’qullanganligi;

Viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari (Sirojitdinov) rahbarligida hududlar sanoatini rivojlantirish va sanoat korxonalarining barqaror ishlashini ta’minlash borasida amalga oshiriladigan tadbirlarni muvofiqlashtirish bo‘yicha viloyat **shtabi** tuzilsin.

Hududlarda sanoat korxonalari bilan manzilli ishlash maqsadida, tuman va shaharlarda hokimning birinchi o‘rinbosarlari boshchiligida soliq va statistika organlari, banklar va iqtisodiy infratuzilma korxonalarining rahbarlarini o‘z ichiga oluvchi hududiy shtablar tuzilsin;

Viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari (Sirojitdinov) hamda tuman va shahar hokimlari hududiy shtablar faoliyatini samarali tashkil etish, korxonalarning samaradorligini oshirish hamda ularning muammolarini tezkor hal etishga hap tomonlama ko‘maklashish uchun shaxsan mas’ul etib belgilansin.

Viloyat Bojxona boshqarmasi (To‘rayev), Farg‘ona elektr tarmoqlari hududiy korxonasi” AJ direktori (Saydaliyev), Markaziy bank bosh boshqarmasi boshlig‘i (Do‘saliyev), Davlat soliq boshqarmasi boshlig‘i (Mamatxanov), Statistika boshqarmasi boshlig‘i (Mamadaliyev)lar shtabi so‘roviga muvofiq, sanoat korxonalariga oid ma’lumotlar viloyat shtabiga taqdim etilishi ta’minlasin.

Viloyat shahar tuman hokimlari hududiy shtablar tomonidan har hafta sanoat korxonalari muammolarini hal etish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar holati yuzasidan ma’lumotlar viloyat shtabiga, viloyat shtabi tomonidan esa har oy hududlar kesimidagi ma’lumotlar va tizimli muammolarni hal etish bo‘yicha takliflar Iqtisodiyot va moliya vazirligiga kiritilsin.

3. Viloyat hokimligi Tashkiliy-kadrlar guruhi (Muhidinov). Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (Ro‘ziyev) bilan birgalikda ushbu qaror asosida viloyat, shahar, tuman hokimliklari boshqaruv tuzilmasiga o‘zgartirish kiritish bo‘yicha qaror loyihasini ishlab chiqsin.

4. 2024-yil 1-sentyabrdan boshlab:

Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (Ro‘ziyev) bosh boshqarma tarkibida 5 ta shtat birligidan iborat Sanoatni rivojlantirish Yig‘ma bo‘lim tashkil etsin;

tumanlar (shaharlar) Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarida sanoatni rivojlantirish bo‘yicha bosh mutaxassis lavozimi joriy etilsin;

Bunda yangi kiritilayotgan shtat birliklari **1-** va **2-ilovalar**ga muvofiq vazirliklar va mahalliy davlat hokimiyati organlarining shtat birliklarini qisqarishi hisobidan ajratilishi;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar, Toshkent shahar, tuman va shaharlar hokimlarining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosarlari bir vaqtning o‘zida:

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vaziri, viloyatlar va Toshkent shahar iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmalari boshlig‘i;

tumanlar (shaharlar) iqtisodiyot va moliya bo‘limlari boshlig‘i etib belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

5. Viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari X.Sirojitdinov **ikki hafta muddatda** yangi tashkil etilayotgan bo‘limlar va bosh mutaxassis lavozimlarini yuqori malakali kadrlar bilan to‘ldirish bo‘yicha choralarni ko‘rsin.

6. Viloyatda sanoat korxonalari bilan manzilli ishlash bo‘yicha viloyat Shtabi tarkibi **3-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

Viloyat shtabi tomonidan **har hafta** hududlardagi sanoat korxonalari muammolarini hal etish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar holati yuzasidan ma’lumotlarni viloyat hokimligiga hamda Respublika shtabiga kiritib borsin.

7. Ushbu qarorning ijrosini samarali tashkil qilishga mas’ul va shaxsiy javobgar etib, viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari X.Sirojitdinov hamda shahar va tuman hokimlari belgilansin.

8. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari X.Sirojitdinov zimmasiga yuklansin.

Viloyat hokimi **X. Bozarov**

Farg‘ona viloyat hokimining
2024-yil 21-avgustdagi
445-11-0-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Вазирликлар ҳамда Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликларида қисқартириладиган ШТАТ БИРЛИКЛАРИ

Т/р	Ҳудуд номи	Вазирликлар		Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши ва ҳудудий х,окимликлар	
		Иқтисодиёт ва молия вазирлиги тизими	Инвестициялар, саноат ва савдо вазирлиги тизими	Инвестиция масалалари бўйича котибият	Маҳаллий саноатни ривожлантириш масалалари котибияти
Жами (109 та)		15	69	12	13
1.	Қорақалпоғистон Республикаси	2	5	2	1
2.	Андижон вилояти	1	5	1	1
3.	Бухоро вилояти	1	5	1	1
4.	Жиззах вилояти	1	5	1	1
5.	Қашқадарё вилояти	1	5	1	1
б.	Навоий вилояти	1	5	1	1
7.	Наманган вилояти	1	5		1
8.	Самарқанд вилояти	1	5	1	1
9.	Сирдарё вилояти	1	5	1	1
10.	Сурхондарё вилояти	1	5	1	1
11.	Тошкент вилояти	1	5	1	1
12.	Фарғона вилояти	1	5		1

13.	Хоразм вилояти	1	5		
14.	Тошкент шах,ри	1	4	1	1

Farg‘ona viloyat hokimining
2024-yil 21-avgustdagi
445-11-0-Q/24-son qaroriga
2-ilova

Туман ва шаҳар ҳокимлари ўринбосарлари - инвестициялар, саноатва савдо бўлимлари бошлиқлари котибиятларидаги қисқартириладиган ШТАТ БИРЛИКЛАРИ

№	Ҳудуд номи	Жами
	Фарғона вилояти	17
1	Фарғона шаҳри	2
2	Марғилон шаҳри	1
3	Қувасой шаҳри	1
4	Қўқон шаҳри	1
5	Бағдод тумани	1
6	Ёзёвон тумани	1
7	Олтиариқ тумани	1
8	Сўх тумани	1
9	Тошлоқ тумани	1
10	Учкўприк тумани	1
11	Фурқат тумани	1
12	Ўзбекистон тумани	1
13	Қува тумани	1
14	Бешариқ тумани	1
15	Данғара тумани	1
16	Фарғона тумани	1

Farg‘ona viloyat hokimining
2024-yil 21-avgustdagi
445-11-0-Q/24-son qaroriga
3-ilova

Hududlar sanoatini rivojlantirish va sanoat korxonalarining barqaror ishlashini ta’minlash borasida amalga oshiriladigan tadbirlarni muvofiqlashtirish bo‘yicha viloyat Shtabi

TARKIBI

№	F.I.Sh.	Lavozimi
1.	X.Sirojitdinov	Viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari - *shtab boshlig‘i o‘rinbosari*
2.	N.Mamajonov	Viloyat hokimining o‘rinbosari - *shtab a’zosi*
3.	A.Pulatov	Viloyat hokimi yordamchisi - *shtab a’zosi*
4.	I.Muminov	Viloyat Investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi boshlig‘ining o‘rinbosari - *shtab a’zosi*
5.	I.Novikov	Viloyat Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari - *shtab a’zosi*
6.	A.Xolmatov	Viloyat Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqini himoya qilish boshqarmasi boshlig‘i- *shtab a’zosi*
7.	A.Yuldashev	Viloyat Savdo-sanoat palatasi boshqarmasi boshlig‘i - *shtab a’zosi*
8.	Sh.Mamadaliyev	Viloyat Statistika boshqarmasi boshlig‘i - *shtab a’zosi*
9.	M.Mamatxonov	Viloyat Davlat soliq boshqarmasi boshlig‘i - *shtab a’zosi*
10.	Sh.To‘rayev	Viloyat Bojxona boshqarmasi boshlig‘i - *shtab a’zosi*
11.	Sh.Dusaliyev	Viloyat Markaziy bank hududiy bosh boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari - *shtab a’zosi*
12.	M.Saydullayev	Viloyat Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi boshlig‘i - *shtab a’zosi*

13.	N.Mashrapov	Kadastr agentligi viloyat hududiy boshqarmasi boshlig‘i - *shtab a’zosi*
14.	L.Pozilov	Viloyat Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jalik bosh boshqarmasi boshlig‘i - *shtab a’zosi*
15.	O.Mo‘ydinov	“Uz Test” davlat muassasasi hududiy filiali boshlig‘i - *shtab a’zosi*
16.	Sh.Abdumajidov	“Hududgaz Farg‘ona” gaz ta’minoti filali direktori - *shtab a’zosi*
17.	A.Saydaliyev	“Farg‘ona elektr tarmoqlari hududiy korxonasi” AJ boshqaruvi raisi - *shtab a’zosi*
18.	M.Yuldashev	“Farg‘ona suv ta’minoti” MChJ rahbari - *shtab a’zosi*
19.	V.Xoshimov	Viloyat Investitsiya boshqarmasi bo‘lim boshlig‘i, *ishchi gurux kotibi*